

# Zarafshon

Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

2023-yil 28-sentabr, payshanba, 115 (23.836)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz


**KUN HIKMATI**

Vaqtdan malham va muammosiga yechim izlagan kishi oqildir



## KATTAQO‘RG‘ONDA SEMENT ZAVODI ISHGA TUSHDI

**Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on tumanida yiliga 3 million tonna sement ishlab chiqarish quvvatiga ega “HENGYUAN CEMENT” xorijiy korxonasi faoliyat boshladi.**

Shu munosabat bilan o‘tkazilgan tadbirda viloyat hokimi Erkinjon Turdimov va xitoylik hamkorlar so‘zga chiqib, O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari keyingi yillarda izchil rivojlanib borayotganini ta’kidladi. Xususan, kuni kecha Samarqandga tashrif buyurgan Szyansu provinsiyasi rahbariyati bilan uchrashuvda ushbu mintaqa tadbirkorlariga Kattaqo‘rg‘onda zarur shart-sharoit yaratib berilishi ma’lum qilindi.

O‘z navbatida xitoylik investor 351 million AQSh dollari miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya mablag‘lari jalb qilinib, amalga oshirilgan mazkur loyiha Kattaqo‘rg‘ondagi ishlarning dastlabkisi va kelgusida yana boshqa korxonalar tashkil etish niyatida ekanligini ma’lum qildi.

38,5 gektar maydonda bunyod etilgan korxonaga Xitoydan zamonaviy uskunalar keltirildi. Zavodning yillik eksport quvvati 82 million dollarni tashkil qilib, Yevropa va boshqa davlatlarga yo‘naltiriladi. Muhimi, yangi korxona ish boshlashi bilan 600 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

## XUSHXABAR!



*Qatarda bo‘lib o‘tayotgan “Islom olamida madaniy tadbirlarning yangilanishi tomon” mavzusidagi XII konferensiyada Samarqand Islom dunyosi madaniyati poytaxti sifatida tasdiqlandi.*

## E’TIROF

***“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros universitetida butunjahon turizm kuni munosabati bilan soha vakillari hamda hamkor tashkilotlar xodimlarini taqdirlash marosimi o‘tkazildi.***

***Viloyat hokimi o‘rinbosari R.Qobilov Samarqandda turizmni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, oktabr oyida shahrimizda o‘tkazilishi kutilayotgan Butunjahon sayyohlik tashkilotining 25-sessiyasiga tayyorgarlik haqida so‘z yuritdi.***

***Shundan so‘ng turizm sohasining bir guruh faollari va hamkor tashkilotlar vakillariga viloyat hokimligi va viloyat turizm boshqarmasining tashakkurnoma hamda esdalik sovg‘alari topshirildi.***



## AZIM KENT SAYYOHLARNI CHORLAYDI

**Samarqand mamlakatimizning turizm darvozasiga aylanmoqda. Bugun nafaqat shahar, balki chekka qishloqlarda ham turistik markazlar, sayyohlarni o‘ziga jalb etayotgan obyektlar ochilmoqda.**

Turizm juda ko‘p sohalarni birlashtiradigan va qamrab oladigan soha. Deylik, madaniy meros obyektlari bir necha asrlik bo‘lsa-da, zarur infratuzilma bo‘lmasa, bu yerga sayyohlarni jalb qilishning deyarli imkoni yo‘q. Shuning uchun bugun bu sohada barcha jihatlar hisobga olingan holda hatto eng nozik didli sayyohning ham talabini qondiradigan darajada sharoitlar yaratish yo‘lida ish olib borilmoqda.

*(Davomi 2-sahifada)* »»

## SAMARQAND VA SICHUAN TURIZM VA IT SOHASIDA HAMKORLIK QILADI

**Samarqandda mehmon bo‘lgan Xitoy Xalq Respublikasining Sichuan provinsiyasi tashqi ishlar boshqarmasi bosh direktori o‘rinbosari Li Xui boshchiligidagi delegatsiya viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari Feruz Abilov bilan uchrashdi.**



Uchrashuvda hamkorlik aloqalarini rivojlantirish yuzasidan fikr almashildi. Bugungi kunda talab ortib borayotgan metallurgiya, qishloq xo‘jaligi, axborot texnologiyalari va turizm sohasidagi hamkorlik ikkala tomon uchun manfaatli bo‘lishiga e’tibor qaratildi.

- Sichuan provinsiyasi markazi Chendu shahridagi IT parkning salohiyati juda yuqori, - deya ta’kidladi F. Abilov. – Shu bois Samarqandda mazkur parkning filialini tashkil etsak, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Shuningdek, Samarqand va Sichuanning turistik salohiyatini har ikki tomonda keng targ‘ib qilsak, o‘zaro hamkorligimizning asosiy yo‘nalishlaridan biri ushbu soha bo‘ladi, deb o‘ylayman.

Xitoyliklar ham bu fikrlarni qo‘llab-quvvatlagan holda hamkorlik yo‘nalishlari bo‘yicha o‘z takliflarini o‘rtaga tashladi.

- Bizda turistik faoliyatni muvofiqlashtirish Sichuan turistik agentligi zimmasida, - dedi Sichuan provinsiyasi tashqi ishlar boshqarmasi bosh direktori o‘rinbosari Li Xui. – Agentlik Samarqand bilan hamkorlikdan manfaatdor, albatta. IT sohasiga keladigan bo‘lsak, bizda bu borada hech qanday muammo yo‘q. Agar ma’qul kelsa, talabalar almashinuvini amalga oshirib, Sichuan texnologiya institutida mutaxassislar tayyorlashni yo‘lga qo‘yishimiz mumkin. Delegatsiyamiz tarkibida ta’lim, sog‘liqni saqlash, turizm sohalarining mas’ul vakillari ham tashrif buyurgan. Ushbu sohalardagi aniq takliflar bo‘lsa, biz hamkorlikni boshlashga tayyormiz.



Uchrashuvdan so‘ng “Ipak yo‘li” turizm va madaniy xalqaro universitetida Samarqand viloyati va Sichuan provinsiyasining turizm va ta’lim bo‘yicha simpoziumi bo‘lib o‘tdi. Unda tomonlar ushbu sohalardagi imkoniyatlarini namoyish etib, hamkorlik istiqbollarini kelishib oldi.

Sichuan delegatsiyasi Samarqand shahrining diqqatga sazovor joylari bilan yaqindan tanishdi. Shuningdek, Registon maydonida xitoylik rassomlar tomonidan yaratilgan rasmlar ko‘rgazmasi tashkil etildi.

## INDALLOSINI AYTGANDA...



**Nazar ESHONQUL, yozuvchi:**

– Bugun rivojlangan davlatlarning siyosatida boshqa mamlakatlarni iqtisodiy jihatdan iste’molchi jamiyatga aylantirish ustunlik qilyapti. Bunday vaziyatlarda bizni ma’rifat qutqaradi. Ma’rifat – fikr degani. Demak, millatning didi, saviyasi, intellektini ko‘tarishimiz uchun har bir fikrga hurmat bilan qaray olish ko‘nikmasini shakllantirishimiz shart.

“Tashabbusli budjet”:

## 113 ta taklif g‘olib bo‘ldi

**Mamlakatimizda joriy yilning 17-iyulidan 17-sentabrigacha “Tashabbusli budjet” loyihasining 2-bosqichi o‘tkazildi. Jamoatchilik fikri asosida berilgan takliflarga ovoz berish jarayonlarida viloyat bo‘yicha 2 million 71 ming kishi elektron tarzda ishtirok etdi.**

Jarayonda Ishtixon tumani Azamat mahallasining Azamat va Oqchiroqosti qishloqlari aholisi viloyatda eng ko‘p (19198 ta) ovoz to‘plab, g‘olib bo‘ldi. Shuningdek, mazkur tumanning Oqtepa (17594 ta ovoz) va Qayirma (16129 ta ovoz) mahallalari aholisi ham ko‘p ovoz to‘plab, g‘oliblar safidan o‘rin olishdi.

- Ovoz berish jarayonlariga qo‘yilgan 2558 ta taklifdan 113 tasi g‘olib deb topildi, -deydi viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari Oybek Oqbo‘tayev. – Ular orasida 25 ta umumta’lim maktabi, 61 ta ichki yo‘llarni ta’mirlash va obodonlashtirish, 9 ta sog‘liqni saqlash muassasalarini qurish, 5 ta mahalla va qishloqda elektr energiyasi hamda 3 ta ichimlik suvi tarmoqlarini yangilash hamda rekonstruksiya qilish loyihalari bor.

“Tashabbusli budjet”ning 2-mavsum tadbirlari uchun “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga 132,7 milliard so‘m ajratildi. Uning 100,9 milliard so‘mi davlat, 31,7 milliard so‘mi esa mahalliy budjet mablag‘laridan shakllantiriladi.

Jumladan, viloyat bo‘yicha g‘olib bo‘lgan 25 ta umumta’lim maktabini ta’mirlashga 26,2 milliard so‘m, 61 ta ichki yo‘l uchun 77,5 milliard so‘m mablag‘ ajratiladi.

- “Tashabbusli budjet” – har bir mahalla va qishloq uchun eng kerakli bo‘lgan jarayon ekan, - deydi Ishtixon tumani Ko‘ktepa mahallasida yashovchi Amir Tolipov. – Chinoq qishlog‘iga boradigan 3 kilometr yo‘lni asfalt qilish uchun hamqishloqlarimiz bilan birgalikda harakat qilib, 13600 dan ziyod ovoz to‘pladik va 1 milliard 200 million so‘m mablag‘ ajratilishiga erishdik. Biroq bu yo‘limizni to‘liq asfalt qilishga yetmas ekan. Kelgusi mavsumda yana qatnashib, yo‘lning qolgan 1200 metrini ham ta’mirlashga harakat qilamiz.

Aholining yillar davomida hal bo‘lmagan muammolari birgina ovoz berish orqali hal bo‘lmoqda. Buning uchun faqat hamjihatlikda ish olib borish lozim.

**Dilmurod TO‘XTAYEV.**

*Turizm xizmatlari eksporti 312 million AQSH dollariga yetadi*



# AZIM KENT SAYYOHLARNI CHORLAYDI

*(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).*

Xususan, shu yilning o‘zida viloyatda qiymati 478 milliard so‘mlik 43 ta turizm loyihasi amalga oshirildi. Shundan, 25 ta mehmonxona va joylashtirish vositasi, 6 ta ekoturizm va dam olish obyekti va boshqa loyihalar ishga tushirilishi natijasida 600 dan ortiq yangi ish o‘rni yaratildi.

**NUFUZLI ANJUMANLAR SHAHARDAN CHETDA O‘TYAPTI**

Samarqandda o‘tkazilayotgan o‘nlab yirik xalqaro anjumanlar davomida ko‘pchilik sayyohlardan hayrat va havas hissiyotlari bilan yo‘g‘rilgan fikrlarni eshitmoqdamiz. Ammo samarqandliklarning fikri e’tiborimni tortdi. Shuncha davlatdan bir vaqtning o‘zida minglab yuqori martabali mehmonlar kelyapti, ammo shaharda yo‘llar yopilmadi, biz odatiy ish kunlarimizni asabbuzarliksiz o‘tkazyapmiz, qabilidagi fikrlarni ko‘p eshitdim. Bularning barchasi, albatta, shahar shovqinidan chetroqda, so‘lim go‘shada barpo etilgan “Silk road Samarqand” turizm markazi tufaylidir. Mazkur majmua Samarqandda yangi O‘zbekistonning turizm darvozasi sifatida ishbilarmonlik va biznes turizmini rivojlantirishga turtki bo‘lmoqda.

Markaz bugungi kunda yirik xalqaro tadbirlar, biznes forumlar va xalqaro sport musobaqalariga mezbonlik qilmoqda.

Jumladan, Shanxay hamkorlik tashkiloti va Turkiy davlatlar tashkiloti sammitlari, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) boshqaruvchilar kengashining “Iqtisodiy chidamlilik va barqarorlikka investitsiyalar kiritish” mavzusidagi 32-yillik yig‘ilishi hamda o‘nlab yuqori darajadagi xalqaro anjumanlar muvaffaqiyatli o‘tkazildi, Samarqand dunyo nigohida bo‘ldi.

**YODGORLIKLAR RESTAVRATSIYA QILINDI**

Samarqand viloyatining turizm salohiyatini yanada oshirish, turizm namoyish obyektlari va ularga yondosh hududlarning infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, Shohi Zinda majmuasi, Bibi xonim masjidi va maqbarasi, Registon ansambli, Amir Temur maqbarasi, Ashratxona maqbarasi, Mahdumi Xorazmiy masjidi, Ruhobod majmuasi, Xo‘ja Doniyor maqbarasi, sobiq Avliyo Nikolay cherkovi, Oqsaroy maqbarasi, Dari Zanjir majmuasi va Samarqand arxeologik tadqiqotlar institutida 14,8 milliard so‘mlik restavratsiya ishlari amalga oshirilib, moddiy-madaniy meros obyektlarining jozibadorligi saqlab qolindi, ularga eltuvchi yo‘llar obodonlashtirilib, sayyohlar uchun qulay sharoit yaratildi.

Bundan bir necha yil oldin Samarqand uchun sanitariya-gigiena shoxobchalarining yetarli emasligi katta muammo tug‘dirar, bu masala doimiy ravishda e’tirozlarga sabab bo‘lardi. Bugun sayyohlar ko‘p tashrif buyuradigan obyektlarda 100 dan ortiq sanitariya-gigiena shoxobchalari tashkil etildi.

Sayyohlar ko‘p tashrif buyuradigan obyektlar va ularga tutash hududlar atrofida Wi-Fi nuqtalari tashkil etildi.

**BIR KUNLIK XARAJAT 80-250 AQSH DOLLARI**

Samarqand xalqaro aeroporti rekonstruksiya qilingach, yillik yo‘lovchilar oqimini 1,5 millionga yetkazish, aeroportni mintaqadagi yirik xabga aylantirish maqsadida ochiq osmon rejimi va beshinchi havo erkinligi huquqi joriy etildi. Buning natijasida 2021-2025-yillar davomida yo‘lovchilar sonini soatiga 350 nafardan 600 nafarga oshirish, muntazam aviaqatnovlarni haftasiga 40 tadan 280 taga yetkazish, yo‘lovchilar sonini yiliga 165 ming nafardan 1,5 million nafarga oshirish imkoniyati yaratildi.

2022-yil davomida Samarqandga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 1,2 million nafarga yetib, turistik xizmatlar eksporti 197,6 million AQSH dollarini tashkil etdi.

Turistlarning o‘rtacha qolish muddati 2,7 kunni va ularning 1 kunlik xarajati 85-250 AQSH dollarini tashkil etmoqda.

Joriy yil yakuniga qadar 2,1 million nafar xorijiy sayyoh jalb etilib, turizm xizmatlari eksporti 312 million AQSH dollariga yetkazilishi rejalashtirilgan.

Sayyohlar tashrif buyuradigan xorijiy davlatlar geografiyasi ham qariyb 2 barobarga oshdi, 2017-yilda 59 ta davlatdan sayyohlar tashrif buyurgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 114 tani tashkil etdi.

**YANGI TURISTIK OBYEKTLAR BARPO ETILADI?**

Joriy yil yakuniga qadar qiymati 1,6 trillion so‘mlik 94 ta investitsion loyiha ishga tushiriladi.

Jumladan, eko-ekstremal turizm yo‘nalishida 18 ta (307 milliard so‘mlik), tibbiyot va termal turizm yo‘nalishida 11 ta (260 milliard so‘mlik), gastronomik turizm yo‘nalishida 36 ta (105 milliard so‘mlik), joylashtirish vositalari 28 ta (759 milliard so‘mlik) va shopping yo‘nalishida 1 ta (220 milliard so‘mlik) yirik savdo va ko‘ngilochar markazlar tashkil etiladi va 1500 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

**BULUNG‘URDAGI SHEROZ QAL’A VA PAYARIQDAGI KO‘KTEPA YODGORLIKLARIDA “OCHIQ OSMON OSTIDAGI MUZEY”LAR TASHKIL ETILADI**

Ayni vaqtda islom dunyosidan ziyoratchilar tashrifini ko‘paytirish maqsadida Payariq tumanidagi Imom Buxoriy majmuasi qayta qurilmoqda.

Majmuada 10 ming o‘rinli masjid, 21 gektar maydonda ulug‘ ajdodlarimizning diniy merosi va moddiy madaniy meros obyektlarini aks ettiruvchi tematik xiyobon, 2 ta yirik va 7 ta kichik mehmonxona, shuningdek, uch ming nafar ziyoratchiga xizmat ko‘rsatuvchi “halol” standartiga ega umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Bundan tashqari, viloyatdagi 20 dan ortiq madaniy meros obyekti restavratsiya qilinadi. Bulung‘urdagi Sheroz qal’a va Payariqdagi Ko‘ktepa yodgorliklarida “ochiq osmon ostidagi muzey”lar tashkil etiladi.

Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda “Muzeylar kvadrati” loyihasi doirasida 4 ta muzey va galereya, “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti tizimida “Art galereya” va “Art rezidensiya” loyihalari ishga tushuriladi. Oktabr oyida Samarqand shahrida Butunjahon turizm tashkilotining “Turizm akademiyasi” ta’lim muassasasi o‘z faoliyatini boshlaydi.

**Umida XOLBEKOVA,**
**viloyat turizm boshqarmasi mas’ul xodimi.**

*So‘rang, javob beramiz*

## SHTATI QISQARGANLARGA HAM MUKOFOT PULI BERILADIMI?

**Korxonada shtat qisqarishi munosabati bilan menga ogohlantirish xati berilgan edi. Ma’muriyat shuni bahona qilib, bizga «premiya» bermayapti. Ogohlantirish muddati tugaguncha mukofot pullarini olishga haqlimanmi, yo‘qmi?**

**Zokir BO‘RIYEV,**
**Kattaqo‘rg‘on shahri.**

Xodimlarga mehnat shartnomasini bekor qilish haqida ogohlantirish berilishi ularni biror-bir mehnat imtiyozlari va kafolatlaridan mahrum qilishga asos bo‘lmaydi. Ogohlantirish muddati tugab, toki mehnat shartnomasi bekor qilinguniga qadar xodimning mehnat munosabatlari avval qanday bo‘lgan bo‘lsa, shu holda qoladi. Biror-bir mehnat qonunchilik hujjatlarida ogohlantirish muddati davomida xodimlarni mehnat imtiyozlaridan mahrum qilish yoki ularning miqdorini kamaytirish haqida normalar ko‘rsatilmagan.

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksiga ko‘ra, xodimlar ogohlantirish muddati davomida boshqalar qatori mukofot pullarini olishga va boshqa mehnat imtiyozlaridan foydalanishga haqli.

## QO‘SHNISIDAN KO‘CHIB KETISHNI TALAB QILISH QONUNIYMI?

**Farzandlarim biroz sho‘xroq. Uyda quvlashmachoq o‘ynashadi, koptok tepishadi. Pastki qavatda yashaydigan qo‘shnimiz «Tinchimizni buzyapsizlar, ko‘chib ketinglar, bo‘lmasa, ustingizdan arz qilamiz», deb bir necha marta po‘pisa qildi. Bular bola bo‘lishsa, o‘z uyida oyoq uchida yurishmaydi-ku, qo‘shnimizning shu talabi to‘g‘rimi? Bizning qanday haq-huquqlarimiz bor?**

**Olmos O‘TAGANOV,**
**Toyloq tumani.**

Jinoyat va ma’muriy qonunchilikda qo‘shnilarning biror sabab bilan ziddiyatlarga borishi alohida qilmish sifatida kvalifikatsiya qilinmaydi, biroq kelib chiqqan oqibatlarga qarab, bir nechta xatti-harakatlar uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan.

Konstitutsiyamizda har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga, o‘z sha’ni va obro‘siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanishi va turarjoyi daxlsizligi huquqiga hamda O‘zbekiston hududida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish, mamlakatga kelish va chiqib ketish huquqiga ega ekanligi belgilangan. Qo‘shniga nisbatan ko‘chib ketishni talab qilish amaldagi qonunchilikka mutlaqo zid, qo‘ni-qo‘shnilar bilan tinchlik-totuvlikda yashash jamiyatning har bir a’zosining fuqarolik burchi.

## YANGI OILA UY-JOY QURISH UCHUN KREDIT OLOLADIMI?

**Turmush qurganimizga bir yil bo‘ldi. Hovlimizda mendan boshqa yana ikki akam oilasi bilan yashaydi. Yashash uchun xonalar yetishmaydi. Uy-joy qurish uchun esa mablag‘imiz yo‘q. Yaqinda turmush qurgan yoshlarga o‘z xonadonida qo‘shimcha uy-joy qurish uchun banklardan garovsiz kredit ajratilar ekan deb eshitib qolgandim. Shu gap rostmi, so‘rasak, bizga ham berisharmikan?**

**Sohib BO‘LAKOV,**
**Oqdaryo tumani.**

Ha, rost. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 637-son qaroriga ko‘ra “Temir daftar” va “Ayollar daftari”ga kiritilgan oilalarning farzandlari hamda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yangi turmush qurgan yoshlarning yakka tartibdagi xonadonida qo‘shimcha uy-joy qurish uchun 33 million so‘mgacha garovsiz kredit ajratish tartibi belgilangan.

Kreditlar bozor stavkasida mijoz xohishiga ko‘ra, 6 oy imtiyozli davr bilan va 20 yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga beriladi. Boshlang‘ich badali yakka tartibdagi xonadonda qo‘shimcha qurilayotgan uy-joy qiymatining 15 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda bo‘lishi kerak. Shuningdek, qarz oluvchi kredit olish uchun murojaat qilgan kunida 18 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan bo‘lishi shart. “Temir daftar” va “Ayollar daftari”ga kiritilgan oilalarning farzandlari hamda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarning yangi turmush qurgan (nikohi qayd etilganiga 3 yildan oshmagan) bo‘lishi lozim. Asosiysi, doimiy daromadga ega bo‘lishi shart.

**Zafar QARSHIYEV,**
**huquqshunos.**

Davlat xizmatlari:

# Fuqaro – e’tibor markazida

**Prezidentimizning 2022-yil 20-apreldagi “Davlat xizmatlari ko‘rsatishni soddalashtirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarishga zamin yaratdi.**

Davlat xizmatlarini jismoniy va yuridik shaxslar uchun foydalanishga oson, qulay va shaffof shakllarda ko‘rsatish ko‘lamini oshirish, aholining masofadan turib elektron davlat xizmatlaridan mustaqil foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida mazkur farmon bilan “Davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan milliy strategiyasi” tasdiqlandi.

Ushbu strategiya bilan 2026-yilgacha davlat xizmatidan foydalanish uchun murojaat qilishning qulay usullari yo‘lga qo‘yiladi. Markazlar va yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga yangi xizmatlarni joriy etishdan oldin ularning tartib-taomillarini soddalashtirgan holda, asosan ma’lum bir hududda eksperiment tariqasida ko‘rsatiladi. Shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlarini sudgacha ishonchli himoya qilishning samarali mexanizmlari belgilanib, markazlar faoliyati samaradorligi oshirib boriladi.

Muhim ma’lumot: Davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini isloh qilish natijasida 184 ta markaz hamda ularning 138 ta filiali orqali jismoniy va yuridik shaxslarga 280 dan ortiq davlat xizmatlari ko‘rsatilmoqda. Har kuni o‘rtacha 70-75 ming fuqarolarimiz Davlat xizmatlari markazlariga tashrif buyurishmoqda. Joriy yilning o‘tgan davrida jami 6432790 ta xizmatlar ko‘rsatilgan bo‘lsa, ularning 648575 tasi aynan Samarqand viloyatidagi mavjud Davlat xizmatlari markazlari hissasiga to‘g‘ri keladi. 2023-yilning 1-yarmida 24 ta yangi davlat xizmati ishga tushirildi.

Aholi va tadbirkorlik sub’ektlariga raqamli xizmatlardan foydalanish uchun



qulay sharoitlar yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, byurokratik tartibotlarni qisqartirish, shuningdek, davlat boshqaruvi, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini hamda hududlarni raqamli transformatsiya qilish maqsadida joriy yilning 24-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu muhim hujjat bilan nimalar o‘zgardi va tizimda kelgusida qanday islohotlar amalga oshiriladi?

Xususan, ayni paytda davlat xizmatlari ko‘rsatishning 300 taga yaqin tartib-taomillarini soddalashtirish, davlat xizmatlarini “3 qadam”, “foydalanuvchi uchun moslashtirilgan”, “barchasi bir mobil ilovada” tamoyillari asosida raqamlashtirish va shu kabi bir qator yangi qulayliklarni joriy etish taklif etilmoqda. Buning o‘ziga xos jihati esa fuqarolar va tadbirkorlar ushbu imkoniyatlar yordamida davlat xizmatlaridan ortiqcha ovoragarchiliklarsiz foydalanishadi.

Ta’kidlash kerakki, bugungi kunda onlayn foydalanish mumkin bo‘lgan xizmatlar soni 400 dan ortiqni tashkil qiladi. Jumladan, joriy yilning o‘tgan 6 oyida viloyat aholisi 200 mingdan ortiq xizmatlarni aynan yagona portal orqali onlayn tarzda olishgan. Bundan ko‘rish mumkinki, aholining onlayn xizmatlarga ishonchi tobora ortib bormoqda.

Kelgusida davlat xizmatlari respublikaning barcha hududlariga kirib borishi hamda aholining davlat xizmatlariga bo‘lgan talabi samarali qondirilishiga erishish maqsadida qator loyihalar, islohotlar ko‘zda tutilgan. Jumladan, elektron davlat xizmatlaridan mustaqil foydalanish ko‘lamini 60 foizgacha ko‘tarish bo‘yicha bir nechta loyihalar ustida ishlanmoqda. Bu o‘z navbatida davlat xizmatlaridan o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatish asosida foydalanish tarmog‘ini tobora rivojlantiradi. Bugungacha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning yangi shakllari joriy qilinishi natijasida 27 ta davlat xizmatini kompozit tarzda ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi. Sodda qilib aytganda, fuqaro bitta ariza orqali bir vaqtning o‘zida bir nechta xizmatni olish imkoniga ega.

Davlat xizmatlarini ko‘rsatishda tizimga innovatsiyalar hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy qilinishi, idoralararo elektron hamkorlikning kengayib borayotgani va mavjud ma’lumotlar bazasi raqamlashtirilishi hamda "fuqaro e’tibor markazida" tamoyili asosida xizmatlardan foydalanuvchilar uchun barcha zarur qulayliklar yaratilayotgani nafaqat o‘z bizneslarini yo‘lga qo‘yish, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan yurtdoshlarimiz, balki xorijlik investorlar va ishbilarmonlarning ham yurtimizga bo‘lgan qiziqishini tobora oshirmoqda. Jumladan, xitoylik investor Lin Xin Ming Samarqandda o‘z biznesini yo‘lga qo‘ydi.

“Heng Fu Xin Stone Industry” MChJ bosh direktori Lin Xin Mingning ta’kidlashicha, kompaniya granit, marmar va shunga o‘xshash tog‘ jinslarini izlab topib, qayta ishlash va bozorga olib chiqish bilan shug‘ullanadi. Korxona to‘liq ishga tushgach, 100 nafar fuqaro doimiy, 300 nafar mahalliy aholi mavsumiy ish bilan ta’minlanadi. Mazkur loyihaga 1 milliard 300 million dollar investitsiya kiritilgan. Kelgusida tovar aylanmasini 2 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

- Ochig‘i, O‘zbekistonga investitsiya olib kirish, tadbirkorlik faoliyatimni yo‘lga qo‘yishda biror to‘siq yoki qiyinchilikka uchraganim yo‘q. Birgina Davlat xizmatlari markaziga borishimning o‘zi kifoya bo‘ldi. Markazda men kabi investorlar uchun barcha imkoniyat mavjud ekan va men ulardan foydalanib, barcha rasmiyatchiliklarni qisqa muddatda hal etdim. Nima uchun bu markaz faoliyatini yuqori baholayapman, chunki davlat ro‘yxatidan o‘tishdan tortib, yer olishgacha bo‘lgan masalalar osongina bitdi. Umuman aytganda, o‘zbekistonliklar menga qo‘lidan kelgan barcha yordamni bermoqda, — deydi u.

Davlat xizmatlaridan masofadan turib foydalanish tizimini takomillashtirish borasida ham yirik ishlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida my.gov.uz portali bilan hujjat ishlarimiz ancha oson va arzonga bitib, ortiqcha mehnat va vaqt sarfidan xalos bo‘layotganimiz ham ayni haqiqat. Hozirgi kunda portalda 18 ta soha mavjud. Bugunga kelib, my.gov.uz xizmatlari ommabop mobil ilovalardan ham o‘rin olgan. Jumladan, “Zoomrad”, “Agro mobile”, “Anor mobile”, shuningdek, “Joyda”, “PayMe” singari mobil ilovalarda 26 turdagi davlat xizmatlari ko‘rsatilishi yo‘lga qo‘yilgan. Qisqa muddat ichida mazkur mobil ilovalar orqali fuqarolarimiz 130 mingdan ortiq elektron davlat xizmatlaridan foydalanishgan. Xo‘sh, davlat xizmatlaridan onlayn foydalanish afzalligi nimada? Birinchi navbatda, bu 10 foiz chegirmaga ega bo‘lish, hujjatlarni QR kod bilan himoyalash, xizmatlardan navbatlarsiz onlayn foydalanish hamda ariza holatini istalgan vaqtda kuzatish va boshqa afzalliklarni beradi.

**Maqsud QURBONOV,**
**viloyat adliya boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari.**

**Tojikistonda yashab, o‘zbek tilida samarali ijod qilayotgan mashhur jurnalist, yozuvchi O‘rinboy Usmon tahririyatimiz mehmoni bo‘ldi. Tabiiyki, hamkasblar uchrashganda suhbat sohaning yutuq va kamchiliklari, bugungi kunda jurnalistning kasbiy fazilatlari va unga ne qadar rioya etayotganligi kabi masalalarga borib taqaladi.**

# Tojikistonda matbuot davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi



*Tahririyatda uchrashuv*

O‘rinboy Usmon sohaning fidoyisi sifatida o‘zbek-tojik jurnalistlarining hamkorligi keyingi yillarda mustahkamlanayotganini ta’kidladi.

- Do‘stlarim orasida doim fikr almashadigan, ijodini kuzatib boradigan o‘zbekistonlik adiblar, publitsistlar talaygina, - deydi O‘rinboy Usmonov tahririyat xodimlari bilan suhbat jarayonida. – Sohaning yutuq va kamchiliklarini muhokama etamiz. O‘zbekistondagi juda ko‘plab axborot saytlarini doimiy ravishda kuzatib boraman. Afsuski, bugun ular orasida yengil shov-shuvga uchib, jurnalistika etikasiga rioya etmagan holda axborotlar berilishi juda ko‘paygan. Ba’zida hali tasdiqlanmagan, shubha-gumonga yo‘g‘rilgan axborotlarning ham chiqib ketayotgani professional jurnalistikaga nisbatan haqorat, deb bilaman.

Adib bugun Tojikistondagi ommaviy axborot vositalari, xususan, matbuotning ahvoli, uni qo‘llash uchun olib borilayotgan ishlarga to‘xtalib o‘tdi. Mehmonning aytishicha, bugungi kunda Tojikistonda matbuot to‘liq davlat hisobidan chop etiladi, har bir viloyat, tuman gazetalari salmoqli nusxalarda nashr qilinmoqda.

Mehmonimiz haqida ma’lumot: O‘rinboy USMON 1951-yilning 2-noyabrida Tojikistonning Sug‘d viloyatida tug‘ilgan. Toshkent davlat universiteti jurnalistika fakultetini (1968-1973) tugatgan. Tojikiston Yozuvchilar ittifoqi va Xalqaro jurnalistlar konfederatsiyasi a’zosi.

Uning "Spitamenning qotili", "Ko‘rgulik", "Sinchli uy", "Anqoning urug‘i", "Daraxtga do‘ngan odam", "Safo chig‘irig‘i", "Inson o‘zing, inson o‘zing" kitoblari nashr etilgan.

O‘rinboy Usmon 2022-yilda O‘zbekistondagi "Oltin qalam" milliy mukofotiga sazovor bo‘lgan.

**Gulruh MO‘MINOVA.**

# Samarqand turizm va madaniy meros texnikumida

# DUAL TA’LIM



**Samarqand turizm va madaniy meros texnikumida O‘zbekiston - Germaniya haftaligi doirasida dual ta’lim mavzusida tadbir bo‘lib o‘tdi.**

Unda Germaniyaning O‘zbekistondagi elchixonasi vakili, “Markaziy Osiyoda iqtisodiy o‘sish sektorlari uchun kasbiy ta’lim” loyihasi katta maslahatchisi Tomas Lyuks, shahardagi ish beruvchi korxona va tashkilotlar mas’ullari qatnashdi.

Samarqand turizm va madaniy meros texnikumining Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati “Markaziy Osiyoda iqtisodiy o‘sish sektori uchun kasbiy ta’lim” loyihasi bilan hamkorligi 2021-yilda boshlangan. Shu davrda mahalliy ekspertlar ko‘magida non, qandolat va makaron mahsulotlari ishlab chiqarish mutaxassisligi bo‘yicha “Oziq-ovqat sanoati texnologi” dual ta’lim dasturi ishlab chiqilib, o‘quv-amaliy binolar jihozlangan.

- Bugun texnikumda kunduzgi va sirtqi ta’lim bilan birga dual ta’lim ham joriy etilgan, - dedi texnikum direktori Roziq Fayziyev. – Dual ta’limda o‘qiydigan talabalar haftaning 4 kuni shartnoma imzolangan korxonada ish o‘rgansa, qolgan 2 kun texnikumda nazariy bilim oladi. Markaziy Osiyodagi boshqa kasb-hunar ta’lim muassasalari bilan bilim va tajriba almashdik. Shu tariqa hamkorlik to‘g‘risida bir qancha memorandumlar imzoladik va texnikum o‘qituvchilari va talabalari uchun Qozog‘iston Respublikasi bilan akademik mobil almashuvlarni amalga oshirdik.

Tadbirda mehmonlar texnikumdagi o‘quv-amaliyot xonalari bilan tanishdi. Qandolatchilik, mehmonxona ishi, restoran ishi, sartaroshlik, restavratorlik kabi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘quv-amaliyot xonalari zarur asbob-uskunalar bilan jihozlanganligi e’tirof etildi. Ikki yillik ta’lim jarayonida talabalar amaliyot bilan nazariyani birgalikda olib borishi mehmonlarga manzur bo‘ldi.

**Xurshida ERNAZAROVA.**



# VILOYATDA “O‘ZBEKISTON-KOREYA KARTOSHKA URUG‘CHILIGI MARKAZI” FAOLIYATI YO‘LGA QO‘YILDI

**Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida “O‘zbekiston – Koreya kartoshka urug‘chiligi markazi” tashkil etildi. Markaz faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun 2023-yil 22-mart kuni Janubiy Koreya Respublikasi Qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat va qishloq hududlarini rivojlantirish vazirligi, Koreya qishloq hududlarni rivojlantirish korporatsiyasi bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda institut o‘rtasida to‘rt tomonlama shartnoma imzolangandi. Shartnomaga ko‘ra, Janubiy Koreya Respublikasining 4,3 million AQSH dollari miqdoridagi mablag‘larini jalb qilish bo‘yicha kelishuvga erishilgan.**

Shuningdek, sohani rivojlantirish maqsadida Samarqand viloyatida kartoshka yetishtirish texnologiyalarini takomillashtirish borasida faoliyat olib borayotgan “GS Bio” qo‘shma korxonasi, Koreya Respublikasining “Xalqaro kartoshkachilik instituti” hamda institut o‘rtasida uch tomonlama hamkorlik memorandumi imzolandi.

“O‘zbekiston-Koreya kartoshka urug‘chiligi markazi” tashkil etilganidan ko‘p o‘tmay bir nechta qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligini qo‘llab-quvvatlovchi xalqaro donor tashkilotlarining yetakchi mutaxassislari bilan O‘zbekistonda kartoshka urug‘chiligini rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligi masalalari bo‘yicha o‘zaro ikki tomonlama uchrashuvlar tashkil etildi.

Jumladan, 2023-yilning 12-15-sentabr kunlari loyihaning bevosita hamkorlari Janubiy Koreya Respublikasi Qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat va qishloq hududlarini rivojlantirish vazirligi, Koreya qishloq hududlarni rivojlantirish korporatsiyasi yetakchi mutaxassislaridan tashkil topgan ekspertlar guruhi tashrif buyurdi. Tashrif davomida koreyalik mutaxassislar viloyatda kartoshka urug‘chiligi bilan shug‘ullanuvchi fermer xo‘jaliklarida bo‘lib, kartoshka urug‘chiligining bugungi holatini o‘rganishdi. Shu bilan birga, institut olimlari va tadqiqotchilari ishtirokida 13-14-sentabr kunlari kartoshka urug‘chiligini rivojlantirish istiqbollari, in-vitro laboratoriyasi, issiqxonalar tashkil etish bo‘yicha seminar-treninglar o‘tkazildi hamda sohani rivojlantirish yuzasidan ikki tomonlama memorandum imzolandi.

Kelgusida institut olimlari Koreyaning qishloq hududlarni rivojlantirish korporatsiyasida kartoshka urug‘chiligi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakasini oshiradi. Koreyalik professorlar tomonidan 3-4 bosqich talabalariga ma’ruza va amaliy mashg‘ulot darslari tashkil etiladi.

**Husniddin XONQULOV,**
**Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori.**

# BANKIRLAR QON TOPSHIRDI

**Viloyat qon quyish markazi jamoasi joylarda "Men donorman!" shiori ostida turli aksiyalar, viktorinalar, davra suhbatlari o‘tkazmoqda. Markaz shifokorlarining navbatdagi aksiyasi "Asakabank" aksiyadorlik jamiyati viloyat boshqarmasida o‘tkazildi. Aksiya davomida boshqarmaning 30 nafarga yaqin xodimi beg‘araz qon topshirdi.**

**Shahnoza JALILOVA, viloyat qon quyish markazi shifokori.**

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

## VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

**tanlov asosida 2024-yil uchun doktorantura (DSc), mustaqil izlanuvchilik-doktorantura (DSc), tayanch doktorantura (PhD) va mustaqil izlanuvchilikka (PhD) quyidagi mutaxassisliklar bo‘yicha qabul e’lon qiladi:**

*03.00.06 - zoologiya;*

*16.00.02 - hayvonlar patologiyasi, onkologiyasi va morfologiyasi. Veterinar akusherligi va hayvonlar reproduksiyasi biotexnikasi;*

*16.00.03 - veterinariya mikrobiologiyasi, virusologiyasi, epizootologiyasi, mikologiyasi, mikotoksikologiyasi va immunologiyasi.*

**Talab etiladigan hujjatlar ro‘yxati:**

*- institut rahbari nomiga ariza;*

*- qisqacha biografik ma’lumotnoma - obyektivka (3,5 shakl bo‘yicha o‘zbekcha va ruscha shaklda);*

*- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);*

*- tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka - mutaxassislik va magistratura diplomi nusxasi;*

*- doktorantura va mustaqil izlanuvchilik-doktoranturaga - oliy ma’lumoti, fan nomzodi yoxud falsafa doktori yoki xorijiy davlatlarda unga tenglashtirilgan ilmiy darajaga ega bo‘lganligi to‘g‘risidagi diplom nusxasi;*

*- tadqiqot mavzusi bo‘yicha ilmiy ma’ruza va fan doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining batafsil loyihasi (doktorantura va mustaqil izlanuvchilik-doktoranturaga);*

*- nashr etilgan ilmiy ishlar ro‘yxati va nusxalari (tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka - kamida 1 ta maqola va 2 ta tezis, doktorantura va mustaqil izlanuvchilik-doktoranturaga - kamida 3 ta maqola va 2 ta tezis);*

*- pasport nusxasi;*

*- ilmiy rahbarining yozma rozilik xati;*

*- 4 dona 3x4 fotosurat;*

*- ish joyidan tavsifnoma (mustaqil izlanuvchilar uchun);*

*- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi hujjati nusxasi (mavjud bo‘lsa);*

*- til bo‘yicha milliy (B2) yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat (majburiy).*

Barcha hujjatlar pdf shaklida tayyorlanib, oliy ta‘limdan keying ta‘limni muvofiqlashtiruvchi yagona elektron tizim (http:phd.mininnovation.uz) orqali ro‘yxatdan o‘tgan holda yuboriladi.

**Manzil: Samarqand viloyati Toyloq tumani, “Charog‘bon” MFY, Yangi Toyloq 1-qishlog‘i, 67-uy.**

**Ma’lumot uchun telefonlar: +99897-910-56-27, +99899-590-51-42.**

## SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

**tanlov asosida 2024-yil uchun doktorantura, tayanch doktorantura, stajyor-tadqiqotchilik va mustaqil izlanuvchilikka quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha qabul e’lon qiladi:**

**DOKTORANTURA:**

*08.00.05 - xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti - 1 o‘rin;*

*08.00.07 - moliya, pul muomalasi va kredit - 1 o‘rin;*

*08.00.08 - buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit - 1 o‘rin.*

**TAYANCH DOKTORANTURA:**

*08.00.05 - xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti - 4 o‘rin;*

*08.00.07 - moliya, pul muomalasi va kredit - 2 o‘rin;*

*08.00.08 - buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit - 2 o‘rin;*

*08.00.11 - marketing - 1 o‘rin;*

*08.00.13 - menejment - 2 o‘rin.*

**STAJYOR-TADQIQOTCHILIK:**

*08.00.05 - xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti - 3 o‘rin;*

*08.00.08 - buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit - 1 o‘rin.*

Barcha hujjatlar pdf shaklida tayyorlanib, oliy ta‘limdan keyingi ta‘limni muvofiqlashtiruvchi yagona elektron tizim (http:phd.mininnovation.uz) orqali ro‘yxatdan o‘tgan holda yuboriladi.

Hujjatlar 15-oktabrgacha qabul qilinadi.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi 9-uy. Ilmiy tadqiqotlar, innovasiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi.**

**Telefon: +99866-233-28-38.**

## DA’VOLAR BO‘LSA...

Samarqand shahridagi “TRADE IN QUALITY GOODS” mas’uliyati cheklangan jamiyati (STIR: 310028274) o‘z ustav fondini 300 000 000 (uch yuz million) so‘mdan 10 000 000 (o‘n million) so‘mga kamayishini ma’lum qiladi.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha e’tirozlar gazetada e’lon chop etilgach, quyidagi manzilda qabul qilinadi:

**Manzil: Samarqand shahri Shodiyona mahallasi, 29-kvartal, 142-uy.**

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Baxranova Marxaboga (2017-yil 17-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Saroy ko‘chasi, 15-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Nishonova Raxima Toshpulatovnaga (2022-yil 5-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Bog‘dod ko‘chasi, 1-uy, 3-xona.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Djafarov Esan Gulyamamadovichga (2022-yil 5-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 80-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Tadjiyeva Sayyoraga (2017-yil 24-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qo‘shatov Akbar Rustamovich notarial idorasida marhum Inoyatova Masudaga (2020-yil 3-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qo‘shatov Akbar Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 67-“J” uy.**

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qodirov Ulug‘bek Tolibovich notarial idorasida marhum Allayarov Akbar Jumabayevichga (2020-yil 30-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qodirov Ulug‘bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Saroy ko‘chasi, 15-uy.**

*Mulohaza uchun mavzu*



# Biznes tarbiyasini bolalikdan berish zarur

Farzand tarbiyasi nozik masala. Sal xatoga yo‘l qo‘yilsa, keyin tuzatib bo‘lmaydi. Xo‘sh, bola tarbiyasini qachon boshlash kerak? Shu savolni donishmandga berishibdi.

- Bolani ona qornidaligidan tarbiyalash kerak! – debdi donishmand.

Xolmon buva bu hikmatni yolg‘iz zurriyoti Rizo voyaga yetgach, angladi. Haddan tashqari erkalatib, qo‘lini sovuq suvga urdirmadi: “Hali yosh, esini tanisa, mehnat qilishga ulguradi”.

Rizo o‘rganmadi, yalqov, ishyoqmas, boqimanda kayfiyatda ulg‘aydi. Mehnatga bo‘yni yor bermaydi. Maktabda ham yolchitib o‘qimadi. Xolmon buva uning cho‘ntagiga jaraq-jaraq pul solib qo‘yar, u esa o‘ziga o‘xshagan takasaltang bolalar bilan allaqayerlarda sanqib yurardi. O‘qishga kirolmadi, ishga kirishadi, eplolmadi, to‘g‘risi, xohlamadi. Ota uylantirib qo‘ydi, bunday notavon er bilan yashay olmasligini tushungan kelin tashlab ketdi. Rizo esa ichib kelib, otadan ko‘proq pul talab qilar, mashina olib ber, deb janjal qilardi. Buning uchun ishlash kerakligi, peshona teri bilan pul topish zarurligiga aqli yetmasdi.

Mehnat insonni ulug‘laydi, muhtojlikdan, xorlikdan qutqaradi. Bola yoshlikdan qo‘lidan keladigan yumushlarni bajarishga o‘rgansa, orzu-havaslarga peshona teri bilan pul topib erishilishini tushunsa, ulg‘ayganda zorlik ko‘rmaydi.

- Ota, kompyuter olib bering, - erkalandi 3-sinfda o‘qiydigan Eldor Rustam akaning bo‘yniga osilib.

- Mayli, o‘g‘lim, olib beraman, lekin sen avval mening aytganimni qilishga va’da ber! Pulni ishlab, o‘zing topasan!

- Men hali kichkinaman-ku, dada, hech qanaqa ish qo‘limdan kelmaydi, - e’tiroz bildirdi Eldor.

- Keladi, o‘rganasan, axir sen aqlli bolasan-ku, o‘g‘lim!

Yakshanba kuni Rustam aka bozordan Eldorga qo‘zichoq olib keldi, biram chiroyli, sho‘x. Tez Eldorga o‘rgandi, ortidan qolmaydi. Eldor esa qo‘zichoqni maysa, beda, yem bilan boqdi, qo‘rasini tozaladi.

- Barakalla, uch-to‘rt oy boqsang, katta qo‘chqor bo‘ladi, sotib, puliga kompyuter olamiz, - dedi Rustam aka mamnun bo‘lib.

Bolaga maktab puli beramiz. Biroq ko‘pincha “hali yosh, tushunmaydi”, degan istiholada pulning qanday topilishi, uni tejab, maqsadli ishlatish lozimligi, buning uchun mehnatdan qochmaslik kerakligini o‘rgatmaymiz.

Amerika avtosanoati korchaloni Ford bir kuni o‘yinchoqlarni buzib-tuzib o‘ynayotgan o‘g‘li Genrixdan so‘raydi:

- O‘g‘lim, ulg‘aysangiz, kim bo‘lmoqchisiz?

- O‘yinchoqlarni tuzatadigan ustaxona ochaman!

- Oh, ho, unga ko‘p pul kerak! - deydi kulib, sodda bolakayning orzusini eshitib ota.

- Ishlayman, topaman, ota!

Hali ikkinchi-uchinchi sinflarda o‘qiyotgan chog‘idayoq Genrix o‘zi pul ishlab topishga kirishadi. Otasi beradigan ellik sent maktab pulini bufetda nonushta qilmay, yig‘a boshlaydi, darsdan so‘ng ko‘chada o‘tirib, yo‘lovchilarning poyabzalini tozalab, pul ishlaydi. 12 yoshga to‘lganda gazeta sotadi. 14 yoshida uy-ro‘zg‘or buyumlari – primus, tikuv mashinasi, bolalar velosipedi kabi mexanik uskunalarni ta’mirlovchi mo‘jazgina ustaxona ochadi. Oradan yillar o‘tib, yiqqan puliga avtoustaxona ochmoqchi bo‘ladi. Biroq to‘plagan puli kamlik qiladi. Qaytarib berish sharti bilan otasi qarz beradi. Ochilgan avtoustaxona keyinchalik kengayib, yirik “Ford” avtomobil zavodiga aylanadi. Genrix Ford bunga o‘z mehnati evaziga erishgandi.

Mamlakatimizda tadbirkorlik muhitini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bundan oqilona foydalanayotgan oilalar issiqxona, parranda, meva-sabzavot, chorva, tomorqa xo‘jaliklaridan mo‘may daromad olishyapti. Muhimi, farzandlarimiz yoshlikdan mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalanadi.

Menimcha, maktablarda “Oila budjeti”, “Tomorqa xo‘jaligi”, “Pazandalik” yo‘nalishlarida to‘garaklar tashkil etilib, o‘quvchilarga iqtisodiyot ko‘nikmalari, tushunchalari o‘rgatib borilsa, foydadan xoli bo‘lmaydi. Zero, farzand kamolotida bilim qatorida mehnat tarbiyasi muhim o‘rin tutadi.

**Tog‘aymurod SHOMURODOV.**

# Hajviyaning tug‘ilishi

*“Zarafshon” gazetasi 110 yoshda*

Kunlarning birida bosh muharrir Xolmuhammad Nurullayev (Alloh rahmat qilsin) ertalabki "planyorka"dan keyin menga:

- Siz bugundan boshlab O‘ktam Qurbonov bilan birga ishlaysiz. Hoziroq narsalaringizni olib, u kishining xonasiga o‘ting. Qurbonovga yordam berasiz, - deb qo‘shib qo‘ydi.

Men 1977-yildan (shu yili o‘qishni bitirib, Toshkentdan doshkolniy texnikumga ishga kelgan edim) to tahririyatga ishga kelgunimga qadar (1996-yil) goh she’r, goh maqola, gohida yozgan hikoya va hajviyalarimni qo‘ltiqqa qistirib, tez-tez qatnab turardim bu muqaddas dargohga. Shu bois bu yerdagilarning deyarli barchasini - bosh muharrirdan to mashinniy byurodagilargacha yaxshigina tanib qolgan edim. Shuningdek, (xudo rahmatiga olgan bo‘lsin) O‘ktam Qurbonovni ham.

O‘ktam samimiy, yumorga moyil, hazilkash inson edi. Biz bir-birimizni juda yaxshi tushinar edik. Shuning uchun ham birga ishlashimizda hech qanday qiyinchilik va tushunmovchilik bo‘lgan emas.

Kunlarning birida O‘ktam:

- Sizga ajoyib bir narsa topib keldim, - deb qoldi.

- Xo‘sh, - dedim unga qiziquvchanlik bilan tikilib. Bu orada qo‘llari shimining cho‘ntaklariga bir-ikki marta kirib chiqdi.



Mening ko‘zim ham uning qo‘llari bilan baravar cho‘ntakka borib kelardi. Shuni ham aytishim kerakki, O‘ktamning yaxshigina qitmirlik odatlari ham bor edi. Uning bu odati ish jarayonida ham teztez takrorlanib turardi. Xullas, u mening astoydil qiziqish bilan kuzatayotganimni ko‘rib, peshonasini tirishtirib, yuziga jiddiy tus berib, go‘yo juda muhim narsani axtarayotgandek, barcha cho‘ntaklarini bir-bir titkilab chiqdi. Bir vaqt menga quvlik bilan qarab:

- E-e-e, esim qursin, axir men olib kelgan narsani cho‘ntakka solib bo‘lmaydi-ku. Men sizga zo‘r bir mavzu topib keldim. Ammo shuni yozib, yaxshigina bir narsa chiqarsa bo‘ladi-da.

- Nima ekan u, - dedim hafsalam pir bo‘lib.

- Bir qo‘shnimiz bor, oti Toshmirza. O‘zi traktorchi. Shu qo‘shnimiz bitta kurkasini bozorga olib borib, sotib kelibdi, deng. Oradan ikki kun o‘tib, haligi kurkani xarid qilgan kishi qaytarib olib kelibdi. Nima gap, desa, "Kurkaning rangi qaynonamga yoqmadi", debdi.

- Ana, xolos, rangining nima aloqasi bor ekan? - dedim men hayron bo‘lib.

- Gap shundaki, qaynonasiga folbin oq kurka buyurgan ekan. Kuyov rangini esidan chiqarib qo‘yib, to‘g‘ri kelganini olavergan ekan.

- Ha-a, gap bor ekan-da.

- Shu haqda bir narsa yozing.

- Bu yog‘i qiziq bo‘ldi-ku, kurka, qaynona va kuyov. Shundan biron narsa chiqarib bo‘larkanmi? - dedim men.

- Boshqani bilmadim-u, ammo sizga ishonaman. Bir harakat qilib ko‘ring.

O‘ktamning bu maqtovidan (maqtov kimga yoqmaydi) judayam shishib ketmagan bo‘lsam ham aytgan gap menga ancha dalda bo‘ldi. Ikkinchidan, u menga boshliq, aytganini bajarishim kerak. Bir haftalar bosh qotirib, o‘ylanib yurdim.

Bu orada O‘ktam bot-bot nima bo‘lyapti, deb so‘rab turdi. Xullas, "Toshmirzaning tovug‘i" nomli hajviyani yozishimga O‘ktamning daldasi sabab bo‘lgan.

**O‘rinboy NORMATOV.**





# ONA SIYMOSIDA VATAN TIMSOLI

Badiiy asarlar o‘z mazmuni bilan jamiyat a’zolarining ma’naviyatini yuksaltirish, ozod va obod Vatanni bunyod etish, odamlarning dunyoqarashi, tafakkuri, ruhiyati, ishonch va e’tiqodini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur mohiyatni chuqur anglagan holda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida ona siymosi tasvirlangan asarlardan iborat ko‘rgazma o‘quv binosining kirish qismidan asosiy talabalar harakatlanadigan qismlari bo‘ylab joylashtirildi.

Shuningdek, filialimizning o‘quv binosiga qo‘shimcha ravishda o‘quv binoning ikkinchi korpusi zamonaviy talablar asosida kapital ta’mirlanyapti. Bundan tashqari, 200 o‘rinli talabalar turarjoyi mukammal ta’mirlanib, joriy yilning 10-oktabriga qadar foydalanishga topshiriladi. Davlat-xususiy sheriklik asosida qurilayotgan 400 o‘rinli talabalar turarjoyini esa dekabr oyida foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

Filialda olib borilayotgan ta’mirlash va qurilish ishlari tugatilgandan so‘ng talabalar turarjoyining har bir qavatiga tarbiyaviy ahamiyatga ega badiiy asarlar, Samarqand shahrining tarixiy obidalari va tarixiy shaxslar suratlari o‘rnatilishi ko‘zda tutilmoqda.

**Hasan TURDIBEKOV,**
**TDIU Samarqand filiali direktorining yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi o‘rinbosari.**

# Tarixning fidoyisi edi

## Jonkuyar ziyoli Sobir Eshniyozovni eslab

**Ertalab ishga kelganimda atrofni kuzatib bo‘lgach, muzey foyesidagi yashnab turgan surat yaqiniga boraman, yonidagi guldon suvini almashtirib, hovlidagi gulzordan terib kelingan gullarni qo‘yaman, sirti va atrofi ozoda bo‘lishiga qarayman, suratni bir sidra mehr bilan artib chiqaman. Chunki bu suratdagi siymo bugungi kunda men rahbarlik qilayotgan muzeyning fidoyisi, aniqrog‘i, uni yo‘qdan bor qilgan marhum ustoz, jonkuyar o‘qituvchi Sobir aka Eshniyozovdir. Muzeyimizdagi deyarli har bir ko‘rgazma, eksponat va hujjatlarda bu tabarruk insonning barmoq izlari bor, desam, adashmayman. Shu boisdan ham paxtachiliklar bu yerdan o‘tayotganda ko‘rkam binoga qarab, Sobir akaning muzeyi deyishadi.**



Darhaqiqat, Poyonigumbaz qishlog‘idagi 8-maktabda tarix fanidan dars bera boshlagan Sobir aka 1938-yildayoq tarix to‘garagi a’zolari bilan birgalikda mo‘jazgina xonada muzey tashkil qilgan. Bu tashabbusi va eksponatlarning ko‘paygani tajribali muallimni tuman miqyosida o‘lkashunoslik bo‘yicha yagona, zamonaviy muzey qilishga da’vat etgan. O‘sha paytlarda har bir tashkilot va xo‘jalikda muzeylar bo‘lib, ular ko‘rimsiz xonalarda joylashgan. Eksponatlar hatto nomlanmagan ham. Tuman rahbariyatining yordamida otaxon ularni birlashtirishga, bebaho, qimmatli eksponatlarni saqlash uchun sharoit yaratishga kirishadi va muzey binosi quriladi.

Bu tashabbus viloyat va respublikada ham tilga tushdi. Chunki Samarqand davlat tarix-arxitektura va badiiy muzey qo‘riqxona filiali hamma tumanlarda ham yo‘q edi. Aslida hozirda ham Samarqand shahridan boshqa faqat ikkita tumanda o‘lkashunoslik muzeyi bor, xolos.

1988-yilda muzeyda respublika tarixchilarining, soha xodimlarining seminari bo‘ladi. Shu tariqa bu ziyo maskani nomi ittifoqqa tanilgan. Unga xalq muzeyi degan nom berildi. Sobir akaning izdoshlari, shogirdlari ko‘paydi.

S.Eshniyozov asli Xorazm viloyatining Gurlan tumanidan, ota-onasidan barvaqt ayrilib, bolalar uyida tarbiyalangan. Samarqand pedagogika bilim yurtini bitirgach esa taqdir uni Paxtachi bilan bog‘ladi. Yozuvchi Ismat Sanayevning "Ziyovuddinning zabardast o‘g‘lonlari" kitobida yozilishicha, u og‘aynilaridan mabodo vafot etsa, Poyonigumbazga dafn etishlarini so‘ragan, muzeyimdan uzoqqa ketmay, degan.

Sobir aka haqida ko‘p yozildi, ko‘p gapirildi. Chunki u inson xalq ta’limining chinakam fidoyisi edi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi unvoni bor edi.

Yaqinda muzeyimizga Gurlandan mehmonlar tashrif buyurishdi, Sobir akaning qarindoshlari ekan. "Biz har ikki-uch yilda bu yerga kelib turamiz. Chunki yoshulli bizdan shuni iltimos etgan. Qishlog‘imizda ham u kishining bu savobli ishini yodga olib turadilar". Men esa bu gaplardan yuragimda faxr tuydim.

**Ozoda XO‘JAMURODOVA,**
**Paxtachi tumani tarixi muzeyi direktori.**

## QALAM AHLIGA

*Dunyoda ko‘p erur g‘amu tashvishlar,*
*Egamiz goh yomon, goh yaxshi izga.*
*Ammo tasvir etmoq qanchalar mushkul,*
*Barini sig‘dirmoq og‘irdir so‘zga.*
*Mushkulotlar kelar, jumboqlar kelar,*
*Yechilmoqqa muhtoj o‘n, yuztalari.*
*Shunda Haqni guvoh qilib, xizmatga*
*Shaylanar yurakdan so‘z ustalari.*
*Tunlari sabrdan so‘zlar yasaydi,*
*Tiriklikka qoshu ko‘zlar yasaydi.*
*Kuygani,suygani, tuygani-qalam,*
*Mashaqqatdan buyuk izlar yasaydi.*
*So‘zga fidolik-ku, asli adolik*
*Ba’zan devonalik, ba’zida shohlik.*
*Goh o‘zni yo‘qotmoq, o‘zni topmoqlik,*
*Shunda ham bardoshi qilar sipohlik.*
*Shunday yashaydilar ijodkor xalqi,*
*Qalbiga tug‘yondan toshqinlar to‘lar.*
*Suyansa, suyanar so‘zga, yiqilsa,*
*Beshak, so‘z ustiga yiqilar ular.*
*Sog‘inishga arzir yo‘llari bisyor,*
*Borliklari mudom hayotga sayqal.*
*Dunyoda men uqqan ma’no, ularga*
*Qalami va so‘zi abadiy haykal.*

## ASRANG…

*Bolam, deya jonini tikkan,*
*Yuragiga mehrlar ekkan.*
*Faqat doshga umrini tikkan,*
*Siz ayolni asrang, iltimos.*

*Goho mavhum o‘ylarda kezib,*
*Ketmoqdasiz dunyodan bezib.*
*Qo‘ydingiz-ku, yurakni ezib,*
*Siz xayolni asrang, iltimos.*

*To‘rt yoningiz bahorli, bog‘li,*
*Yo shundanmi ko‘ksingiz tog‘li.*
*Har oningiz fayziyob chog‘li,*
*Siz zamonni asrang, iltimos.*

*Nolishingiz nadin ishorat,*
*Ko‘ngil Ka’ba yanglig‘ imorat.*
*Bir so‘z ayting hayotga monand,*
*Siz har onni asrang, iltimos.*

*O‘z jismiga o‘zi ey, g‘anim,*
*Dilsizlardan og‘riydi tanim.*
*Shundan bag‘rim yaradir manim,*
*Sizki, tanni asrang, iltimos.*

*O‘z uyida podshodir yurak,*
*Mushfiq tuproq onadek tirgak.*
*Yashamoq-chun yana ne kerak,*
*Siz Vatanni asrang, iltimos.*

## MEN TUPROQNI…

*Men tuproqni sevmayin nechun,*
*Har qadamim aziz qilgan u.*
*Bardoshimdan bunyod tog‘larni,*
*Ulug‘latib, laziz qilgan u.*
*Quchog‘ida bobolar izi,*
*Momolarim buyuk mehri bor.*
*Yuragimga mador berguvchi*
*Ta’riflarga sig‘mas sehri bor.*
*Mudom dildan aylayman tavof,*
*U-otamning peshona teri.*
*Onam boshin qo‘ygan sajdagoh,*
*Va qalbimning eng toza yeri.*
*Men tuproqni sevmayin nechun,*
*Ona so‘zi yo‘ldosh yaralgan.*
*U haqda so‘z ketganda mudom*
*Zamin mehri dilga taralgan.*
*U darddoshim, borim, borlig‘im,*
*U tiriklik, shirin goh taxir.*
*Bugun yulduz bazmida bo‘lsam,*
*Erta meni chorlaydi axir.*
*Men tuproqni sevmayin nechun,*
*Unda faxr, g‘urur, shonim bor.*
*Tepkilasam, ko‘kragin tutib*
*Dalda bergan o‘tli onim bor.*
*Unda o‘tmish, kelajak aksi,*
*Bor umrimga jilolari yor.*
*Tomirimga toza qon bergan*
*Vatan degan aziz jonim bor.*



## XAYOL

*Ko‘p bor sarob ko‘ylagin kiydim,*
*Men g‘o‘r edim, soddadil edim.*
*Hech ham ishim bo‘lmaydi dedim,*
*Senga degan dunyolar bilan.*

*Sen ham ketding qo‘l siltab bexos,*
*Ketding go‘yo begonaga xos.*
*Qiziqdingmi, hattoki oz-moz,*
*Menga degan dunyolar bilan.*

*Umr o‘tdi, dardlar sim-simdir,*
*Yurak, o‘ylar ummonin tindir.*
*Chunki shu on yashayapti kimdir,*
*Bizga degan dunyolar bilan.*

**Guljahon MARDON qizi.**

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 355 nusxada chop etildi. Buyurtma 525. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E’LONLAR: (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61
MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: G‘.HASANOV.
Navbatchi: T.SIDDIQOV.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X
9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda